

**Andijon viloyati statistika boshqarmasida 2025-yilda
O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni
talablariga rioya etilishi holati bo‘yicha hisobot**

Andijon viloyati statistika boshqarmasida 2025-yilda shtat birliklar soni 103 ta, shundan boshqaruv xodimlar 86 ta, ishlab chiqaruvchi 2 ta, texnik xodimlar 3,5 ta va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar 13,5 tani tashkil etadi. Bugungi kunda haqiqatda ishlovchi xodimlar soni 107 ta.

Statistika ishlar dasturida belgilangan vazifalarning bajarilishida boshqarma tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oylari davomida 70 ta xizmat safari, 28 ta ishga qabul qilish, 61 ta lavozimda o‘zgarish, 57 ta mehnat shartnomasini bekor qilish, 96 ta mehnat ta’tili, 93 ta “k” (rag‘batlantirish va moddiy yordamga oid) buyruqlari hamda 99 ta ishlab chiqarishga oid buyruqlar qabul qilingan.

28 ta qabul qilinganlardan 19 tasi boshqaruv xodimi hisoblanib, ular ochiq tanlov asosida ishga qabul qilingan. 9 tasi xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar bo‘lib.

Yil davomida o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni yetarli darajada tashkil etmaganligi, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaganligi uchun boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘limlarining 25 ta xodimiga O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 312-moddasi birinchi bandiga asosan “Hayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi hamda ularga nisbatan intizomiy jazo amal qilib turgan muddatda rag‘batlantirish choralari qo‘llanilmasligi ta’minlandi.

Barcha buyruq va mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa huquqiy hujjatlar amaldagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan Yuridik xizmat tomonidan tekshirilgan va imzolangan. Har bir xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomasi loyihasiga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarori hamda Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 18-martdagi 26-k-son buyrug‘i asosida “Andijon viloyati statistika boshqarmasi shtat jadvalini amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda maqbullashtirish jarayonlarini tashkil etish va maqbullashtirish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal qilish, murojaatlarni ko‘rib chiqish hamda Kasaba uyushmasi qo‘mitasini xabardor qilish va birgalikda ishlashni tashkil qilish bo‘yicha Komissiya” tashkil etildi. Natijada, shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlarga ogohlantirish xatlari berildi, ishda qoldirishda qonun bilan berilgan afzalliklarni inobatga olgan holda tegishli nomzodlarni aniqlash, qisqartirilayotgan xodimlarga qonunchilikda belgilangan huquq va kafolatlari to‘g‘risida tushuntirishlar berish, bo‘shayotgan xodimlarga esa Mehnat kodeksida nazarda tutilgan barcha kafolatli to‘lovlarni belgilangan tartibda va muddatda amalga oshirilishini ta’minlash ishlari o‘z vaqtida va to‘g‘ri tashkil etildi.

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 18-moddasi ijrosini ta‘minlash maqsadida yil boshida boshqarma tizimidagi barcha xodimlar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar to‘ldirildi. Yil davomida ishga yangi qabul qilingan xodimlardan ham ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar taqdim etildi. Topshirilgan deklaratsiyalar tahlili natijasida Andijon viloyati statistika boshqarmasida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanmadi.

2025-yilda boshqarma tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta‘sir etadigan qarorlar qabul qilinmagan. Ijro holati doimiy nazoratda bo‘lgan.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 162 ta murojaatlar tushgan bo‘lib, ulardan 33 tasi jismoniy shaxslardan, 129 tasi yuridik shaxslardan kelib tushgan. Barcha murojaatlarga o‘z muddatida javob xatlari berilgan va barcha murojaatlar qanoatlantirilgan.

Korrupsiyaga doir murojaatlar 2025-yilda bo‘lmagan.

Boshqarmaning rasmiy saytiga har oyning 10 sanasiga qadar oylik va choraklik ma‘lumotlar davlat tilida doimiy joylashtirib borilgan.

Statistika boshqarmasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasi hamda Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Ishchi guruhi tashkil etilgan. Faoliyat doirasida ular tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi ishlab chiqilgan. Yil davomida O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan Davlat dasturlari va boshqa qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag‘ishlangan tadbirlar tashkil etildi.

Yil boshida xodimlar tomonidan statistik ma‘lumotlarni tayyorlash jarayonidagi vazifa va funksiyalari “o‘rta” korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasida baholandi.

Xavf-xatarlar darajasini kamaytirish, ya‘ni “past” darajaga tushirish va xodimlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida boshqarma tizimida yanvar-dekabr oylari davomida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid 15 ga yaqin tadbirlar hamda 50 dan oshiq huquqiy targ‘ibotlar o‘tkazildi.

Barcha tadbir va targ‘ibot tafsilotlari boshqarmaning rasmiy veb-sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlaridagi saxifalarda keng yoritildi.

Boshqarma tomonidan statistika faoliyatining ochiqqligini ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishni targ‘ib qilish maqsadida “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan va

korruptsiyaga qarshi kurashishga chorlovchi bukletlar ishlab chiqilgan. Bugungi kunga qadar jami 8 turdagi 1650 ta ko'rgazmali qo'llanmalar aholiga, tadbirkorlik subyektlari vakillariga, statistika hisobotini topshiruvchilariga tarqatildi.

Boshqarmada ishonch telefonlari faoliyati va "Adolat qutisi"ga murojaatlar kelib tushishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilgan va 2025-yilda korruptsiyaviy holatlar bo'yicha murojaatlar kelib tushmagan.

Shuningdek, 2025-yilning 28-noyabrdan 12-dekabr kuniga qadar Andijon viloyati statistika boshqarmasi va tuman (shahar) statistika bo'limlarida davlat statistika organlari faoliyatining ochiqqligini, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta'minlash hamda fuqarolarni qiziqtirgan savollariga javob olishlari maqsadida "9-dekabr-Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurash kuni"ga bag'ishlangan "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari bo'lib o'tdi. Ushbu kunlari joylarda aholi va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi, ularni qiziqtirgan barcha masalalar bo'yicha tegishli tushuntirishlar va maslahatlar berildi, muammolarini hal etishda amaliy yordamlar ko'rsatildi, korruptsiyaga qarshi kurashish mavzusida tadbirlar tashkil etildi va tashrif buyuruvchilarga tizimga oid bukletlar tarqatildi. Ushbu tadbir doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlarida 16 tadan ziyod tadbirlar o'tkazildi. O'tkazilgan barcha tadbirlar boshqarmaning rasmiy veb-sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi.

Yil davomida boshqarma va xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan konsalting shartnomalari, "O'ztelekom" AJ, "GOSS" sug'urta kompaniyasi va boshqa to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzildi.

Zarur tovarlar elektron savdo tizimi orqali amaldagi qonunchilik, ya'ni O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni asosida xarid qilingan. Viloyat statistika boshqarmasida Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish o'rnatilgan tartibda yo'lga qo'yilgan. 2025-yilda davlat xaridlari bo'yicha jami 50 ta shartnoma tuzilgan, ularni tuzishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmagan.